

## Andijon viloyati statistika boshqarmasi



# 2019 yilning yanvar-may oylarida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -  
**1534,3 mlrd. so`m**

Yirik qurilish tashkilotlari  
ulushi – **3,8 %**

Kichik tashkilotlar va  
mikrofirmalar ulushi  
– **74,9 %**

Norasmiy sektor  
ulushi – **21,3 %**

Andijon viloyatida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-may oylarida Andijon viloyatida jami **1534,3** mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **106,6 %**ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **58,3** mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,8 %**ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **199,2 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **74,9 %**i yoki **1148,9** mlrd.so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **105,8 %**ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **21.3 %** yoki **327,1** mlrd.so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **0.1 %** ga ko`paydi.



### Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi - 58,3 mlrd.so`m
- o`shish sur`ati - 199,2 %
- ulushi - 3,8 %




### Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- hajmi - 1148,9 mlrd.so`m
- o`shish sur`ati - 105,8 %
- ulushi - 74,9%



## Iqtisodiy faoliyat bo'yicha qurilish ishlari, mlrd.so'm



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **71,2 %**ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **4.4 %** punktga kamaydi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **8.7 %** ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0.5 %** punktga kamaydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa **20,1 %** to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,9 %** punktga ko'paydi.



## Yanvar-may oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Mos ravishda, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi **74,9** %ni (1,2 % punktga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi **21,3** %ni (3,1 punktga kamaydi) tashkil etdi.

## 2019 yilning yanvar-may oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **9,1%**ni tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **85,9 %** (**14,1** punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **5,0 %**ni (**0,5 %** punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **8,5 %** punktga ko'paydi va **14,9 %**ni tashkil etdi. Qolgan **85,1 %**i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **8,3 %** punktga kamaydi.

## Xududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

(2019 yil yanvar-may oylarida)

	Jami, mlrd.so`m	O`shish sur`ati, %da	shu jumladan, mulkchilik shakllari bo`yicha	
			Davlat, %da	Nodavlat, %da
<b>Viloyat bo`yicha:</b>	<b>1534,3</b>	<b>106,6</b>	<b>5,5</b>	<b>94,5</b>
➤ <b>Andijon shahar</b>	641,1	101,9	2,7	97,3
➤ <b>Xonobod shahar</b>	51,4	106,2		100,0
➤ <b>Andijon tuman</b>	167,1	106,8	3,5	96,5
➤ <b>Asaka tuman</b>	63,0	101,8	9,4	90,6
➤ <b>Baliqchi tuman</b>	30,9	131,6	9,4	90,6
➤ <b>Bo`z tuman</b>	58,3	111,2	5,0	95,0
➤ <b>Buloqbooshi tuman</b>	26,2	194,6	11,1	88,9
➤ <b>Jalalquduq tuman</b>	50,0	146,8	31,1	68,9
➤ <b>Izboskan tuman</b>	43,5	82,0	6,7	93,3
➤ <b>Ulug`nor tuman</b>	31,8	146,8	43,6	56,4
➤ <b>Marxamat tuman</b>	68,4	98,9	4,2	93,8
➤ <b>Oltinko`l tuman</b>	64,0	81,3	4,5	95,5
➤ <b>Paxtaobod tuman</b>	33,4	88,7	8,7	91,3
➤ <b>Xo`jaobod tuman</b>	51,8	178,7	5,6	94,4
➤ <b>Shaxrixon tuman</b>	103,4	116,2	2,8	97,2
➤ <b>Qo`rg`ontepa tuman</b>	49,5	109,9	5,9	94,1

## 2019 yil yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1148,9** mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **74,9 %**) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **105,8 %**ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining **21,3 %**ni yoki **327,1** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **101,5 %**ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **58,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi **3,8 %**ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **199,2 %**ni tashkil etdi.

## Yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari, % da



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida yuqori ko'rsatkich Andijon shahri (hududdagi qurilish hajmining **41,8** %ini tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **101,9** %ni tashkil etdi) va Andigon tumanida (mos ravishda, **10,9** % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4.3** % punktga ko'paydi) kuzatildi.


## Hududlar kesimida qurilish ishlari ulushi, % da



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Andijon shahrida (hududdagi qurilish hajmining **18,7** %ini tashkil qilib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,6** marta ko'p ) to'g'ri keldi.




## Hududlarda qurilish ishlarining o`shish sur'atlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan % da),



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish sur`ati Andijon shahrida «Andigondavmaxsus pudrat» davlat unitar korxonasi (**1,8 marta**) kuzatildi. Bu korxonadan Andijon viloyati irrigasiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, Andijon viloyati daryo qirgoqlarini mustahkamlash, Andijon viloyatidagi chegara oldi hududlarida rokat yo'l qurish.

## 2019 yilning yanvar-may oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da



Andijon viloyati qurilish ishlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida katta ulushini asosan Andijon shahrida (**41,8 %**), Shaxrixon (**6,7 %**) va Andijon tumanlarida (**10,9 %**) kuzatildi.



**Andijon viloyat statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: S.Hadjaev

Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37